

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI

Raximov A.A.

Kimyo Toshkent xalqaro universiteti Samarqand filiali

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

+998990295005, akmaldarkness@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'litmizimida axborot xavfsizligi bo'yicha fikr mulohazalar keltirilgan. Qolaversa, muallif tomonidan axborot xavfsizligini takomillashtirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lism, pedagogika, axborot, uzluksiz ta'lim tizimi.

Axborot xavfsizligi sohasida, xususan kadrlarni maqsadli tayyorlashning dolzarbliji jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, axborot komponentini axborotlarni taqdim etishning barcha sohalariga faol joriy qilish va bu bilan paydo bo'ladigan axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari oliy ta'lim tizimiga axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kiritish zarurligi to'g'risidagi muammoni qo'ymoqda¹.

Bu muammoni hal qilish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash doirasida "Axborot xavfsizligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu ta'lim yo'nalishining amaliyotga joriy etilishi, talabalarda tubdan yangi komponentni - axborot xavfsizligi sohasidagi axborot madaniyati va kopetentlikni shakllantirish zarurati bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi².

Ushbu paragrafda maqsadlar, mazmun, ilmiy-metodik asoslashni aniqlash,

¹ Ярочкин В. И. Информационная безопасность. — М.: Международные отношения, 2000. - 400 с.

² Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишида виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Карши.: - 2020. – 49 б.

axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarni oydinlashtirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Axborot xavfsizligi sohasidagi muammoli vaziyatning keskinlashishi davlatimiz va jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, ekologik, ijtimoiy va boshqa sohalarda murakkab rivojlanish jarayoni, zamonaviy jamiyatga, insonga axborotining turli sohalarida, xususan, axborot sohasiga tahdid soladigan ijtimoiy beqarorlik, jiddiy ekologik, texnogen va boshqa muammolar tufayli sodir bo'lmoqda.

Jamiyatimizdagi axborot xavfsizligi sohasidagi faoliyatning asosiy sohalaridagi tahdidlarni tasvirlash orqali pedagogik jamoani "Axborot xavfsizligi" ta'lim sohasini hosil qilishga undagan shart-sharoitlarni yaratuvchi salbiy omillar manbalariga jiddiy e'tibor qaratish zarurati paydo bo'ldi.

"Axborot xavfsizligi" ta'lim sohasini tashkil etish maqsadini belgilash bir qator asoslarni ko'rib chiqish bilan bog'liq. Ko'pgina ta'lim sohalaridan farqli o'laroq, "Axborot xavfsizligi" o'z tabiatiga ko'ra integrasiyalovchi tavsifga ega, turli xil bilim sohalaridagi keng ko'lamli fundamental va amaliy fanlarni o'zlashtirishni talab qiladi, bu esa ko'pincha axborot xavfsizligi bo'yicha bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun zarur bo'lgan maxsus ko'nikma hamda malakalarni o'rganish va egallahda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlovchi maqsad parametrlarini belgilab beradigan aniq ko'rsatmalar mavjud emas.

Axborot xavfsizligining maqsad parametrlarini aniqlash uchun quyidagi boshlang'ich asoslari ko'rastib o'tilgan³:

- axborot - tabiat va jamiyatdagi har qanday o'zaro ta'sir asoslangan shaxs, narsa, dalil, hodisa va jarayonlarni turlicha ifoda etishda ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi voqyelikni aks ettirish natijasidir. Zamonaviy inson bir vaqtning o'zida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir necha muhitda istiqomat qiladi va faoliyat yuritadi, ularning eng muhimlaridan biri - axborot muhitidir.

³ Барсуков В.С., Водолазский В. В. Интегральная безопасность информационно-вычислительных и телекоммуникационных сетей (часть. Технология электронных коммуникаций. М., 1993. - 146 с.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- axborot mohiyatan shaxs, jamiyat va davlat axborot faoliyati mahsuli bo‘lgani uchun, har qanday mahsulot singari, unga muhtaj bo‘lgan ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilarga hamda bir qator talab qilinadigan sifatlarga ega. Iste’molchi nuqtai nazaridan, foydalanilayotgan ma’lumotlarning sifati zarur iqtisodiy, siyosiy yoki madaniy-ma’naviy axborotlarni olish imkoniyatni beradi. Bu esa muayyan ijtimoiy, axboriy, intellektual vaziyatlarda ustunlikka olib kelishi mumkin hamda qo‘sishimcha psixologik dalillarning namoyon bo‘lishiga olib keladi. Axborot egasi yoki ishlab chiqaruvchisi nuqtai nazaridan - muhim ma’lumotlarning turli ta’sir etuvchi omillaridan yetarli darajada himoyalanishni saqlab qolish uni shaxsiy, jamoat maqsadlarida muvaffaqiyatli ishlashiga, boshqa axborot egalari bilan raqobatlashishga imkon beradi. Shu sababli quyidagilarni: axborot o‘z shakllari va mazmunini to‘liq yo‘qolgunga qadar manipulyasiya qilish hamda buzish uchun unga ta’sir etuvchi turli omillar tomonidan tobora ko‘proq himoyasiz bo‘lib borishini ajratib ko‘rsatish o‘rinlidir.
- xodimlarning axborot xavfsizligi bo‘yicha tayyorgarlik darajasi, shuningdek, xavfsizlik tizimining ishlashi, inson axborot faoliyati o‘zaro ta’sir doiralarini tashkil etuvchi xavf va tahdidlarga mos kelishi kerak. Ma’lumki, axborotning o‘zini ham, uning tashuvchilari ham, iste’molchilari ham ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanish holatini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini amalgaloshirish - doimiy va o‘ta diqqatni, sinchkovlik bilan o‘rganishni, tegishli xavfsizlik tizimlarini yaratishni talab qiladi.

Manbalarni aniqlash, tahdid va xavflarni o‘rganish, ularning inson va jamiyatdagi ma’lumotlarga ta’siri kabi dolzarb vazifalar bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi, uzlucksiz ta’limdagi o‘quv predmeti sifatida uchta vazifani bajaradi: ko‘plab ilmiy yo‘nalishlardagi yutuqlarni birlashtiradi; axborot xavfsizligi yaxlit ilmiy-ta’limiy sohaga - shaxs, jamiyat va davlatning axboriy muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish holatini o‘rganadi; xavflarni, tahdid ta’sirlarini oldindan bilish va oldini olish mexanizmlarini va ulardan ma’lumotni himoya qilish, shuningdek, inson va jamiyatning axborot faoliyatini o‘rganadigan

xavfsizlik haqidagi umumiy fanga aylandi⁴.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ярочкин В. И. Информационная безопасность. — М.: Международные отношения, 2000. - 400 с.
2. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши.: - 2020. – 49 б.
3. Барсуков В.С., Водолазский В. В. Интегральная безопасность информационно-вычислительных и телекоммуникационных сетей (часть. Технология электронных коммуникаций. М., 1993. - 146 с.
4. Байбородова Л.В., Индюков Ю.В. Методика обучения основам безопасности жизнедеятельности.: Метод, пособие. М.: Гуманит. Изд. центр ВЛАДОС, 2003. — 272 с.

⁴ Байбородова Л.В., Индюков Ю.В. Методика обучения основам безопасности жизнедеятельности.: Метод, пособие. М.: Гуманит. Изд. центр ВЛАДОС, 2003. — 272 с.